O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZILIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI
O‘quv-uslubiy boshqarma
№ 427
«03» 07 2024y.

“Tasdiqlayman”
Namangan muhandislik-
qurilish instituti rektori
_______ SH.T.Ergashev
“___” 07 _______ 2024 yil

# TURMUSH FAROVONLIGI NAZARIYASI
## FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohalari:** | 300 000 - | Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohalari:** | 310 000 - | Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 70310102 - | Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |

**Namangan - 2024**

| Fan/modul' kodi | O'quv yili | Semestr | Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| THEOWE8 | 2024-2025 | 3 | 7,5 | |
| **Fan/modul' turi** | **Ta'lim turi** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Tanlov fanlar | O'zbek | | 6 | |

| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil Ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
|---|---|---|---|---|
| | Turmush farovonligi nazariyasi | 90 (44 m / 46 a) | 135 | 225 |

2. **I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – turmush farovonligi borasida mavjud bo'lgan turli nazariy qarashlar aholining turmush tarsi va daromadlarini o'rganish, shuningdek aholining ijtimoiy jihatdan ehtiejmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq, manzilli chora-tadbirlar tizimini tadqiq etish boyicha talabalarda professional bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - talabalarda nazariy bilimlar, amaliy konikmalar, aholining turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va O'zbekistonda aholining turmush darajasi hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalarini, aholi daromadlari, ularning shakllanish manbalarini, aholi daromadlarining tbaqalashuvi va kam ta'minlanganlik muammosini, daromadlar siyosatini o'rganish va tahlil qilishni shakllantirishdan iborat.

**Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- Aholining turmush tarzi va uning iqtisodiy malumotlarini qayta ishlash jarayonida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalana olishni o'rgatish;
- Aholi turmush darajasini iqtisodiy tahlil qila olishni o'rgatish;
- Iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq tasvirlashni o'rgatish;
- Iqtisodiy tadqiqot olib boorishda iqtisodiy konsepsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu."Turmush farovonligi nazariyasi" fanining mazmuni maqsadi va vazifalari**

Turmush farovonligi borasida iqtisodchi olimlarning qarashlari to'g'risida tushuncha. Fanning predmeti. Fanning maqsad va vazifalari. "Turmush farovonligi nazariyasi" fanining tuzilishi va boshqa fanlari bilan o'zaro aloqadorligi. Fanni o'rganish usullari. "Turmush tarzi", "turmush darajasi", "turmush sifati" tushunchalarining iqtisodiy mohiyati.

**2-mavzu. Turmush farovonligi nazariyasi bo'yicha turli xil yondashuvlar.**

Turmush farovonligi nazariyasi bo'yicha turli xil yondashuvlarni vujudga kelishi sabablari, turmush tarzining namoyon bo'lishi: mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari; turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari; siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish; moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari; kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvori me'yorlari va qoidalari.

**3-mavzu. Turmush farovonligini oshirishda ishchi kuchini takror hosil qilinishi.**

Hozirgi ko'pchilik mamlakatlarda amaliyotda qabul qilingan nazariyalar. O'zbekiston iqtisodiy siyosatida qo'llanilayotgan monetaristik nazariyalarning mohiyati.

**4-mavzu. Ishchi kuchi bozori to'g'risidagi turli xil nazariyalar**

Ishchi kuchi tushunchasining mazmuni va mohiyati. Ishchi kuchining takror hosil etilishi. Ishchi kuchining miqdor va sifat jihatlari. Ishchi kuchi masalasidagi klassik, yangi klassik, keynscha va monetaristik yondoshuvlar. Ushbu yondoshuvlardagi tafovutlar va kelishmovchiliklar negizi hamda ularning hozirgi zamon muammolarini hal qilishdagi afzalliklari va kamchiliklari.

**5-mavzu. Turmush farovonligini oshirishda ishchi kuchi bozori.**

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif. Ishchi kuchi bozori va uning mohiyati. Ishchi kuchi bozorining ishlash mexanizmi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishchi kuchi bozori shakllanishining sabablari. «Ishchi kuchi bozori» tushunchasiga turlicha yondashuvlar.

**6-mavzu. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif.**

Ishchi kuchi bozori va uning tarkibiy elementlari. Uning shakllanishida iqtisodiy va huquqiy asoslar. Ishchi kuchi bozorining ijtimoiy-iqtisodiy natijalari. Ishchi kuchi bozorida raqobatbardoshlikni oshirishni ta'minlash shartlari. Ishchi kuchi bozorining modellari. Ishchi kuchi bozorining O'zbekistondagi modellari. Ishchi kuchi bozorining xorijiy mamlakatlardagi modellari va o'ziga xosligi. Ishchi kuchiga talab va ishchi kuchi taklifi. Ishchi kuchiga talab va taklifiga ta'sir etuvchi omillar.

**7-mavzu. Turmush farovonligini oshirishda ishchi kuchi bozorini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishchi kuchi bozorining asosiy vazifalari. Ishchi kuchi bozorining rivojlanish bosqichlari va bu bosqichlardagi asosiy vazifalar. Ishchi kuchi bozorining tartibga solinishi.

**8-mavzu. Ishchi kuchi bozorini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar**

Ishchi kuchi bozorini o'rganishda sotsiologik tadqiqotlarning ahamiyati. Mikro va makroiqtisodiyot darajasida ishchi kuchi bozoridagi talab va taklifni muvofiqlashtirish yo'llari. Ishchi kuchi bozoridagi eng yangi tamoyillar: globallashuv va milliy manfaatlar. Ishchi kuchi bozorini tartibga solish strategiyasi va uning asosiy yo'nalishlari

**9-mavzu. Ishchi kuchi bandligi bo'yicha turli xil yondashuvlar va nazariyalar**

Ish bilan bandlik tushunchasi. Ishchi kuchini ish bilan bandligi bo'yicha klassik va neoklassik nazariyalar. Klassik maktab yirik namoyondalarining ish bilan bandlik to'g'risidagi qarashlari. J.Keyns va neokeynschilarning ish bilan bandlik nazariyasi. Hozirgi zamon neoklassiklarining ish bilan bandlik nazariyalari va ulardan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida foydalanish.

**10-mavzu. Ijtimoiy sohaning aholi turmush farovonligini oshirishdagi roli**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Kichik biznes sub'ektlarining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni va ahamiyati. Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida fermer va dehqon xo'jaliklarini ko'payib borishi. Fermer xo'jaliklari qisqa muddat ichida ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakli ekanligi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Qishloq joylarida ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish. Kichik biznes rivojlanishini tartibga soluvchi eng muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish.

**11-mavzu. Ta'lim sohasining nazariy asoslari va isloh qilinishi**

Ta'lim taraqqiyoti. Uzluksiz iqtisodiy ta'lim - davr talabi. Uzluksiz iqtisodiy ta'lim tuzilishini shakllantirish. Iqtisodiy ta'lim tizimlarining xalqaro andozalari va modellari. Iqtisodiy ta'limning inglizcha-amerikacha tizimi. Iqtisodiy ta'limning grekcha-ruscha tizimi. Iqtisodchilarni tayyorlashning va takomillashtirishning strategik yo'nalishlari. Iqtisodiy ta'limning asosiy bosqichlari va davrlari.

Uzluksiz iqtisodiy ta'limni mablag' bilan ta'minlash yo'llari. Ta'limni isloh qilishda xalqaro tashkilotlar va fondlar bilan faol hamkorlik yo'llari. Prezident jamg'armasi. Prezident grantlarini joriy etish to'g'risidagi Farmon. «El-yurt umidi» jamg'armasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.

**12-Mavzu. Sog'liqni saqlash tizimining nazariy asoslari.**

Sog'liqni saqlash sohasining iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni haqida turli xil nazariy qarashlar. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlanishida sog'liqni saqlash tizimining o'rni. Sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiy-ijtimoiy vazifalari. Aholi sog'ligini saqlash iqtisodiy zaruriyat ekanligi. Ijtimoiy muammolarni hal qilishda sog'liqni saqlash tizimining ahamiyati. Sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi. Sog'liqni saqlash tizimining bozor munosabatlariga o'tishdagi o'ziga xos xususiyatlari. Sog'liqni saqlash tizimining funksional va texnologik aloqalari. Tibbiyot sohasidagi raqobatchilikning ish sifatiga ta'siri. Sog'liqni saqlash tizimiga sarflanayotgan investitsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

**13-Mavzu. O'zbekistonda bu tizimda olib borilayotgan islohotlarning asosiy natijalari.**

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida islohotlarning obyektiv zaruriyati. Islohotlardan ko'zlangan maqsad va vazifalar. Rivojlangan mamlakatlar sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga xos xususiyatlar. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining isloh qilishning huquqiy asoslarini yaratish borasida davlatning amalga oshirayotgan chora-tadbirlari. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining isloh qilishningasosiy yo'nalishlari. Tibbiy xizmat bozorini shakllantirilishi. Tibbiy sug'urtaning asosiy printsiplari. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining isloh qilishning bosqichlari.

**14-Mavzu. Sog'liqni saqlash tizimining isloh qilinishi va uning asosiy ko'rsatkichlari**

Respublika sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadlari va vazifalari. Islohotlar konsepsiyasi va tarmoqni tashkil qilishni, moliyalashtirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlash tizimi salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan asosiy tadbirlar. Sog'lom oilani shakllantirish, yoshlarni turmushga tayyorlash. Sog'liqni saqlash sohasiga "aqlliy tibbiyot"tizimi, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish. Mamlakatimizda xalqaro andozalardagi tibbiy xizmat ko'rsatish asoslarini yaratish. xalqaro hamkorlik imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish. Bozor munosabatlariga o'tish davrida rivojlangan mamlakatlarning sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish tajribasini o'rganish.

**15-Mavzu. Ijtimoiy sohada turizmning o'rni va ahamiyati**

Turizm tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlari. Turizm sohasi bilan bog'liq tarmoqlar majmuasi. Mustaqillik yillarida turizm siyosatini shakllantirish borasida davlatning amalga oshirayotgan chora-tadbirlari va

ularning ahamiyati. Turizm bozori turlari. mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda xalqaro turizm sohasining ahamiyati. Xalqaro turizm siyosatini shakllantirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Yalpi milliy mahsulot hajmining o'sishida va valyuta tushumlarini ko'paytirishda xalqaro turizmning o'rni. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi davlatning amalga oshirayotgan chora-tadbirlari.

**16-mavzu. Ijtimoiy sug'urta tizimi.**

Sug'urta tizimi. Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati va ahamiyati. Ijtimoiy ta'minot tizimining tuzilishi. Ijtimoiy ta'minot turlari. Pensiya, nafaqalar. Ijtimoiy fondlar, ularning roli, manbalari va tuzilishi.

O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ijtimoiy ta'minot muammolari vazifalari. O'zbekiston Respublikasida sug'urta tizimining yanada takomillashtirish zaruriyati.

**17-mavzu. Ijtimoiy sohada soliq tizimi.**

Soliq yukining taqsimlanishi va ishlab chiqaruvchilar uchun soliq tizimidagi o'zgarishlar oqibatlari. Soliqqa tortishning ishchi kuchi taklifiga ta'siri. Optimal soliq solish va ishlab chiqarish samaradorligi. Soliqqa tortish tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi. Soliqlar turlari. Markaziy va mahalliy soliqlar. To'g'ri va egri soliqlar.

**18-mavzu. Soliqlarning turkumlanishi.**

Soliqlarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra turkumlanishi. Shaxsiy va daromad solig'i. Korporatsiyalar foydasiga solinadigan soliq. Kapital va mulk solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i. Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekistonda soliq tizimini isloh qilish.

**19-Mavzu. Ijtimoiy sohada mehnat xarajatlari va natijalarning o'ziga xosligi**

Xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari mehnati jamiyat yangi mehnatining bir qismi. Moddiy ishlab chiqarishda mehnat oddiy vaziyatlar: faoliyatning turli-tumanligi, mehnat vositalari, mehnat predmeti va mehnatning bevosita o'ziga xosligi. ijtimoiy sohada iste'mol predmeti sifatida foydalaniladigan moddiy vositalarni oddiy ehtiyoj predmetidan alohida ajratiladigan tomonlari. Noishlab chiqarish jamg'armalari iste'mol ko'rinishini yo'qotishi. Ijtimoiy soha moddiy resurslari va mehnati iqtisodiy tabiatning asosi, ularning qiymat yaratishdagi o'rni, chegarasi, o'zaro aloqasi, mutanosibligi va ta'sir darajasi yaratilayotgan xizmat hajmini baholash imkoniyati. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasi. Mehnat natijalari natural, vaqt va pul o'lchovlarida o'lchanishi. Ijtimoiy sohadagi erishilgan natijalarni son va sifat jihatidan baholanishi.

**20-Mavzu. Ijtimoiy sohaning moddiy-texnika asoslari.**

Ijtimoiy soha moddiy-texnika asosining shakllanishi ishlab chiqarish tizimi aloqalari ta'sirida. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sohaning moddiy-texnika asosini maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil qilish va rivojlantirish.

**21-Mavzu. Ijtimoiy sohaning mehnat resurslari.**

Ilmiy-texnika taraqqiyoti ham ijtimoiy soha moddiy-texnika asosining o'sish omillaridan biri. Xizmat ko'rsatish sohalarining moddiy-texnika asosini mukammallashtirish ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning asosiy bo'g'ini.

**22- Mavzu. Noishlab chiqarishning asosiy fondlari.**

Noishlab chiqarishning asosiy fondlari. Noishlab chiqarish asosiy fondlarini yangi asosiy fondlar hisobiga shakllantirish. ijtimoiy soha xodimlari mehnatini oqilona tashkil qilishni va aholining xizmatga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish. Asosiy fondlar dinamikasining qiymat shaklidagi ko'rinishi. Ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibi, jamiyatning mehnat taqsimoti darajasi, rivojlanishining maqsadga yo'naltirilgan vazifalari mamlakat mehnat resurslarini faoliyat sohalari bo'yicha taqsimlanishi.

**III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Turmush farovonligi nazariyasi" fanining mazmuni maqsadi va vazifalari
2. Turmush farovonligi nazariyasi bo'yicha turli xil yondashuvlar.
3. Turmush farovonligini oshirishda ishchi kuchini takror hosil qilinishi.
4. Ishchi kuchi bozori to'g'risidagi turli xil nazariyalar
5. Turmush farovonligini oshirishda ishchi kuchi bozori.
6. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif.
7. Turmush farovonligini oshirishda ishchi kuchi bozorini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari
8. Ishchi kuchi bozorini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar
9. Ishchi kuchi bandligi bo'yicha turli xil yondashuvlar va nazariyalar
10. Ijtimoiy sohaning aholi turmush farovonligini oshirishdagi roli
11. Ta'lim sohasining nazariy asoslari va isloh qilinishi
12. Sog'liqni saqlash tizimining nazariy asoslari.
13. O'zbekistonda bu tizimda olib borilayotgan islohotlarning asosiy natijalari.
14. Sog'liqni saqlash tizimining isloh qilinishi va uning asosiy ko'rsatkichlari
15. Ijtimoiy sohada turizmning o'rni va ahamiyati
16. Ijtimoiy sug'urta tizimi.

17.Ijtimoiy sohada soliq tizimi.
18.Soliqlarning turkumlanishi.
19.Ijtimoiy sohada mehnat xarajatlari va natijalarning o‘ziga xosligi
20.Ijtimoiy sohaning moddiy-texnika asoslari.
21.Ijtimoiy sohaning mehnat resurslari.
22.Noishlab chiqarishning asosiy fondlari.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan mavzular.

1. Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari.
2. Inson omilining shakllanishi va uning faollashuvi.
3. Aholining moddiy va ijtimoiy farovonligi: mohiyati, rivojlanish bosqichlari va yo‘nalishlari.
4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi.
5. Korxonada xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi.
6. Ijtimoiy imtiyozlar iqtisodiy tabiati.
7. Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibi.
8. Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish tartibi.
9. Rivojlangan mamlakatlarning pensiya ta’minoti modellari.
10. Pensiya ta’minoti tizimining me’yoriy-huquqiy asoslari.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**

**Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:**

➢ talaba iqtisodiyot fanida mavjud bo‘lgan turmush farovonligi borasidagi turli nazariy qarashlar va yondashuvlar to‘g‘risida ***tasavvurga ega bo‘lishi***;

➢ aholining turmush tarzi va unga ta‘sir etuvchi omillarni; turmush darajasi kontseptsiyasini; aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlarini; minimal iste‘mol byudjeti, tirikchilik minimumi, mutloq va nisbiy qashshoqlikning ijtimoiy-iqtisodiy mazmun-mohiyati; aholi daromadlari, uning turlarini; aholi daromadlarining tabaqalashuvi hamda daromadlar siyosatini bilishi ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

➢ talaba aholining turmush tarzi va daromadlarini ifodalovchi statistik ma‘lumotlar asosida iqtisodiy rivojlangan, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi, uning hududlarida aholining turmush tarzi va daromadlarini tahlil qilish hamda uning asosida xulosalar chiqarish bo‘yicha yechimlar qabul qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

4. **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

Ma’ruzalar; real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; esse, tezis va maqola yozish; vaziyatli topshiriqlarni (keys-study) yechish; jarayonli – yo‘naltirilgan ta’lim; muhokamalarda ishtirok etish; kichik guruhlarda ishlash; loyiha ishi bajarish; mustaqil ishlarni bajarish; taqdimot tayyorlash; turli darajadagi testlarni echish; so‘rov o‘tkazish.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘gri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish sinovlarini topshirish.

6.

**Asosiy adabiyotlar**

1. John K. Coffey, Laura Wray-Lake, Debra Mashek /A Multi-Study Examination of Well-Being Theory in College and Community Samples-Happiness Studies · October 2014
2. А. А. Власова, Э. В. Дворникова, А. В. Кошелева. Яросл. гос. ун-т им. П. Г. Демидова. Современные теории социалного благополучия: учебно-методическое пособие - Ярославл : ЯрГУ, 2017. - 48 с.
3. T.M.Ziyayev, Sh.T.Israilova, B.E.Mamaraximov. Turmush farovonligi nazariyasi. O‘quv qo‘llanma., - T.: Iqtisodiyot, 2019 y.

**Qo’shimcha adabiyotlar**

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: O‘zbekiston, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
7. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.
8. Abdullaev S.A., Xajiev B.D., Mambetjonov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. Barkamol fayz media. 2018. -424 bet.

**Internet saytlari**

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
3. www.stat.uz

| | |
|---|---|
| | 4. www.economist.com<br>5. www.worldeconomics.com<br>6. www.tradingeconomics.com |
| 7. | **Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul' uchun ma'sullar:**<br>E.Jurayev – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi, i.f.f.d. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>I.Sirojiddinov – NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi professori, i.f.n.<br>N.Sotvoldiyev – UBS "Iqtisodiyot" kafedrasi professori, i.f.d. |